



“BONU” ROMANDA AYOL VA DAVR, MUHIT VA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR TALQINI

**Nazokat Nurullayeva**

*BuxDU Adabiyotshunoslik*

*(o‘zbek) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada iste’dodli ijodkor Iqbol Mirzoning o‘zbek adabiyoti, nasrida epistoliyar shaklida yaratilgan “Bonu” romani haqida fikr yuritiladi. Romanda ayollar obraziga xos jihatlar, davr, muhit, ijtimoiy munosabatlar qalamga olingan va asardan olingan parchalar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Hozirgi adabiy jarayon, nasr, badiiy mahorat, badiiy tasvir vositalari, milliy ruh.*

Asar bosh qahramoni Bonu sodda, ko‘ngli ochiq, haqiqatsevar, chiroyli va o‘z sohasining yetuk bilimdoni. Afsuski uning benihoya soddaligi, har bir kishini o‘ziga yaqin olishi, hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Taqdirning unga yo‘llagan shavqatsiz sinovlari oldida egilmay, mardona kurashdi. Yozuvchi buni tabiat tasviri, falsafiy qarashlari bilan uyg‘unlikda Bonu tilidan beradi:

“Umid ham quyoshga o‘xshaydi, botar chog‘i hammayoq zulmatga cho‘madi, endi hayot tugadi degan o‘y ko‘rshapalakday aylanib qoladi. Ammo vaqtiki yetib umid yana uyg‘onadi, sahro osmonida beg‘am suzgan uvada bulutlar qorniga zarrin nurlar qadalib, yana hayot boshlanadi, qushlar tilga kiradi, qumga quloq bossang, er ostidagi ildizlar shivirini ilg‘ay boshlaysan”<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, Bonu obrazi atrofida ikkiyuzlamachi, yolg‘onchi, o‘z manfaati yo‘lidan hech narsadan tap tortmaydigan Yusuf, O‘lmas, maktab direktori tog‘asi va kelinoyisi kabi salbiy obrazlarni uchratamiz.

Bobosi qo‘lida tarbiyalangan Bonu aqlli, ota-onasini hurmat qiladigan, ajdodlar e‘tiqodiga sadoqatli qiz bo‘lib ulg‘aydi. Asardan o‘zbek xalqiga xos milliy udum va an‘analar ham o‘rin olgan. Jumladan bel va oyoq og‘rig‘iga da‘vo sifatida qumga ko‘milganlar yoki Bonuning tanasi oqarganda mullalarga borib, qon chiqarib, Xo‘ja Ubbon kabi avliyo qadamjasiga borib shifo tilab yotganlari shular jumlasidandir. “Qiz bola otasiga mehribon bo‘ladi”, – deyishadi: Asar qahramoni Bonu onasiga qaraganda otasi bilan sirdosh bo‘ladi, og‘ir vaziyatlarga tushib qolganida otasidan maslahat so‘raydi. Shuning uchun ham otasining o‘limi uning hayotidan bor-budidan olib ketadi. Yaqinlari bo‘lishiga qaramay, u o‘zini yolg‘iz sezadi, chunki besh opa-singil orasidan otasining Bonuga mehri bo‘lakcha edi. Asarda aytilishicha: kenja qizga otaning mehri bor, farishtaning sehri bor.

<sup>1</sup> Иқбол Мирзо. Бону. Учинчи жилд. Роман ва ҳикоялар. Тошкент. “Шарқ” НМАК. 2020. 98-бет.






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Badiiy asarda g'oya tasvir etilgan kishilarning ruhiyati, taqdiri, voqealar va narsalarning mohiyati ichiga shunchalik singib ketadiki, bu g'oyaga muallif tomonidan ishora qilinmagan holda ham, o'zimiz o'sha muallif chiqargan xulosaga kelamiz. "Bonu"ning so'z boshida asarning asosiy g'oyalaridan biriga ishora qilinadi ya'ni bir yosh qizning boshidan kechirganlari va undan ma'lum xulosalar chiqarish. Badiiy asardagi g'oya san'at asarining mazmuniga asos bo'lgan umumlashiruvchi, emotsional obrazli fikrdir. Oddiy g'oyalardan farqli o'laroq, abadiy asardagi g'oya, "badiiy g'oya" deb ataladi. Badiiy g'oya obrazli fikrdir. U faqat obyektiv tasvir etilgan hayot manzarasi, kishilar taqdiri, voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqadi.

Badiiy g'oya – muallifning tasvir predmetiga munosabatini yorqin ifoda etuvchi g'oyadir. Bunday g'oya yozuvchining hislarini ifoda etgani va shu hislarni o'quvchiga ham yuqtira olgani uchun emotsional (ta'sirchan) kuchga ega bo'ladi. Darhaqiqat, "Bonu" muallifi romanda tasvirlangan har bir kishiga nisbatan qanday munosabatda bo'lsa, o'quvchilarda ham ularga ana shunday munosabat tug'dira oladi.

Badiiy g'oya – bo'rttirilgan g'oyadir. Jamiyatimizda ezgu niyatli Bonudek qizlarning hayot uchun kurashi va atfidagilarning unga munosabati inson tabiatining naqadar xilma-xilligini ko'rsatadi. Shu bois yozuvchi Iqbol Mirzo o'z diqqatini xuddi shunday kishilarga qaratadi. Ularning fazilatleri va fojiali xislatlarini bo'rttirib ko'rsatadi. Bo'rttirilganlik, ayniqsa Bonu obrazida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, Bonuning maktab bilan bog'liq haetiga nazar tashlasak, bosh qahramon xarakteri bilan o'zi yashayotgan muhit orasida katta farq borligini ko'ramiz. Maktabda Bonuning tashabbusi bilan radiouzel ishga tushiriladi. Buning uchun direktorning roziligini oladi, rayonoga borib, yugur-yugur qilib, o'z hisobidan mikrofon sotib oladi." Fonogramma chiqib, bozori kasod bo'lgan musiqa o'qituvchimiz Ilhomjon akadan to'yima to'y yuraverib yog' bosib ketgan eski ovoz kuchaytirgichni "otang yaxshi, onang yaxshi", qilib ijara oldim. G'ayratim jo'sh urib, eng shimarib ijod otiga mindimu, bitiruvchi sinflardan bir juftan yigit qizni saralab olib, so'zamollikka tayyorladim. Kundalik yarim soatlik eshittirishimiz dasturi, asosan, ta'limga oid yangiliklar, maktab xabarleri, qoloq o'quvchilar tanqidi va musiqiy tabrikdan iborat edi. Ishimiz yurishib ketdi. Bora-bora yoshi ulug'roq tajribali muallimlar uchun "Pandnoma" sahifasi ham ochildiki, bir haftaga qolmay talabgor ustozlar qur'a tashlash taklifi bilan chiqishdi. Bolalarning ilhom bulog'i qaynaganini aytmaysizmi! Sakkizinchi "B"da o'qiydigan Olimjon Suyarov degan og'ir karvon bola o'zi to'qigan "Ustoz" nomli she'rini radiomiz to'lqinlari orqali taratdi-yu butun maktab shoirga aylandi-qoldi. Ular orasida qofiya ko'chasidan o'tmagan, umrida she'r yodlamagan do'lvorilari bo'lganidek, ta'bi nazmini tushovlab yurgan Zulfiyaxonim izdoshleri ham anchagina ekan"<sup>2</sup>.

Avvaliga bu ish hammaga ma'qul keladi. Keyin direktor o'rinbosarining xuo'omadgo'yiligi tufayli radioda "Direktor minbari" tashkil etilsa va maktab muhtaram bosh ustozimizning ibratli tafakkur durdonalaridan haftada ikki bor bahramand bo'lsa...





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ikkilamchi, ushbu fikrimni qo'llab-qo'ltiqlashlaringni so'rayman... Kutilmaganda gulduros qarsak yangrab, quloq-chakkamga shapaloq tushganday bo'ldi". Bonu shartta o'rnidan turib: – Kechirasizlar, shundog'am mag'zi puch gaplar ko'payib, o'quvchilar zada bo'lyapti. Radio bolalar uchun tashkil qilingan ekan, bas, ularning intellektini rivojlantirish uchun xizmat qilishikerak... – deganda butun jamoa baravariga bobillab unga tashlanadi. Noiloj qiz o'zi aytganidek, murosa ko'chasiga kiradi. Direktor "har dushanba besh daqiqa "durdona" sohadiganbo'ldi...

Bonu yaltoqlik, ko'zbo'yamachilik yomon ko'rgani sababli bu masalada ham direktor bilan kelishga olmaydi. O'zi aytganidek, kun sayin direktorning xurmacha qiliqlari gul ochib, radio so'z erkinligini bo'g'a boshladi. Radio yoriladi. Bonu ijodkor shogirdlarini o'ylab, "Turon" nomli devoriy gazetaga asos soladi. Ammo rahbarning mijg'ovligi, kaltabin va vosvosligi tufayli yozma nashr ham yulduz ko'rmay o'chadi.

Ko'rinadiki, Bonu yolg'onchilik, aldov ustun bo'lgan muhit bilan hech chiqisha olmaydi. Rostguylikka o'rgangan qiz shu sababli hayotda juda ko'p qiynaladi. Shunga qaramay, hyotda o'z o'rnini topish uchun kurashadi, ezgu ishlar qilishdan charchamaydi.

Yoki Bonuning Shoira opasi va uning turmush o'rtog'i bilan bog'liq ko'ngilsizliklarda ham jamiyatning illatlari, byurokratizm avj olgan muhit bilan qahramonnin orasidagi konflikt real qalamga olinadi.

Ammo ariza-shikoyatlar, yozuv-chizuvlar besamar ketdi. Besamar ketgani mayli-ku, aks natija berdi. Rahbarning qo'li ham, tili ham uzun ekan, hamma u taraf bo'ldi. Korxonaning nomimda bo'lgani uchun so'roq-javoblarda asosan men ishtirok etdim. G'o'rlikim, tajribasizligimdan foydalanib, meni rosa qo'rqitib, dovdiratishdi. Cho'lponning Zebisi ko'yiga tushdim-qoldim. Aka meni ehtiyotlab, hammasi meniki, men bosh-qoshman, u qo'g'irchoq, xolos, yedi-ichdilariga o'zim javobgarman, deb imzo chekib berdi.

Marg'ilondan keltiriladigan ipak o'ramlari "o'g'irlik mahsulot" bo'lib chiqdi. Sotgan ashyolarimizdan namuna topishib, sifati past deb baholashdi-yu xaridorni aldagan, soliqdan daromad berkitgan, ishchilarga vaqtida maosh bermagan, mansabini suiiste'mol qilgan... kabi aybnomalarni yopishtirishdi.

Bu ham yetmaganday, eski shahardagi oziq-ovqat do'koni, sartaroshxona xizmati ham egri topilib, jinoyatishi qo'zg'atildi. Bu ko'rgiliklarning hammasi shunchalik tez sodir bo'ldiki, yarim tunda zilzila ro'y berganday esankirab, dovdirab qoldik. Keltirilgan misoldan ko'rinadiki, jamiyatdagi amaldorlarning zo'ravonlaigi, insonlarni halol ishlashga qo'ymay, tuhmatlar qilib qamatib yuborishgacha borib yetishi qahramon tilidan tanqid ostiga olinadi.

Bonuning tarbiyasida Mir Arab madrasasi tuprog'ini o'n yil yalab, ilmi komil bo'lgan bo'lgan ma'rifatli, mo'min inson-bobosining o'rni bo'lakcha edi. Bobosining ta'siri ostida yoshligidanoq Allohning kalomini va hadisi sharifni tinglab, goho Xo'jamnazar Huvaydo g'azarini o'qib, yodlab ularning sehr-u jozibasidan bahramand bo'lib ulg'ayadi. Bonuning bola chog'idanoq qalbida kitobga muhabbat uyg'onadi. Hayotining asosiy mazmuni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mutolaa bo'lgan sofdil qizning hayotini qayg'u bulutlari qoplaydi. Avval bobosidan, keyin dadasidan ayriladi. G'am kelsa qo'sha-qo'sha deganlariday go'zal Bonu pes kasaliga chalinadi. Inson bolasi eng og'ir damlarida sevikli insonlariga suyanadi. Biroq Bonuning suyanchiq tog'i qulab tushadi, sevgilisi Olmos uni tashlab ketadi. Opalarining undan o'zini olib qochishi, yakka-yu yagona akasi Mirxond ham yangasining gapiga kirib u bilan tortishib qolishi, oliygohda talabalarning turli xil gap-so'zlari, jirkanib qarashlari unga katta ruhiy zarba yetkazadi. Bu darddan qutulish uchun har bir "maslahatgo'y" bergan maslahatlarga amal qilib ko'radi, qilmagan ishi, tutmagan yo'rig'i qolmaydi. Nachora, Allohdan kelganiga bo'ysunmasdan ojiz bandasining na iloji bor deb taqdirga ko'nishga majbur bo'ladi. O'zi bitirgan maktabda o'qituvchilik qiladi. Har bir zamonda ham adolatparvar hech kimga yoqmaganidek, bu yerda ham uzoq ishlay olmay ishini tashlab ketadi. Bonu qishlog'iga sig'may qoladi. Cho'lpon ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, "Ko'ngil boshqa narsa-yangilik qidiradir" deya Bonu ham Moskvaga tog'asining yoniga ishlashga ketadi. Onasining "ishonchli" deya yoniga yuborgan tog'asining ko'rsatgan noma'qulchiliklaridan hafsalasi pir bo'lgan Bonu u yerdan bosh olib chiqib ketadi.

Dunyo faqat qora bo'yoqlardan iborat bo'lmaganidek, Bonuga doimo qo'lidan kelgan yordamini ayamagan Shoira opa, Ikromiddin aka, Alisher, validasi uni qo'llab-quvvatlab turishadi. Asarda chin muhabbatni anglash va qadrlash tuyg'usini hamma ham anglolmasligi, ayrim insonlarga muhabbat hayf ekanligini Olmosning razil qilmishlari timsolida ko'ramiz. U Bonuning soddaligidan, sof muhabbatidan foydalanib, "fermer", "tabib", "kasal" ko'rinishlariga kirib, uning pullarini shiladi. Qilmishlari oshkor bo'lgach, zarracha uyalmaydi ham. Bonu uchun judayam qadrlil bo'lgan shu bilan birga, faqatgina unga tegishli bo'lgan tilla tangalarni ishlatganda akasi ham hecham istihola qilmaydi. Hayhot!.. Bu qanday zamon? Bunday erkaklarda g'urur degan tushuncha bormikan degan savol qiynaydi. Bu holatlarda Bonu shunchaki hech narsa qilmaydi ham, demaydi ham. Bu esa odamdan ulkan Matonat talab qiladi! Asar ...faqat bitta dog' qolgandir ...yuragimda degan jumlar bilan yakunlanadi.

Ushbu romanda bir qizning boshidan kechirgan qiyinchiliklari, sabr-u bardoshi, irodasi tasvirlanishi bilan birga davr ijtimoiy muammolariga ham mohirona tanqidiy yondashilgani ham e'tiborga molik. Jumladan, ta'lim sohasidagi kentikliklar shular jumlasidandir. Asarda Bonu ishlagan maktabning ahvoli, direktor va o'quvchilarning yangiliklarni qabul qila olmasliklari, sen menga tegma, men senga tegmayman degan qabilada yashashi, ta'limga e'tibor bermasliklari kabi holatlar mahorat bilan o'quvchiga ko'rsatib berilgan.

Bonu" romanida ham o'z davrining bir qancha muammolari yoritilgan. O'sha davrdagi paxta mavsumi mohirona tasvirlangan. "U davrni o'zingiz bilasiz-ku, xalqning ong-u shuuriga paxta muqaddas deb singdirilib, g'o'za iloh darajasiga olib chiqib qo'yilgan edi. Hali sho'raviy chuchvara qalpog'ini yechmagan rahbarlar paxta so'nggi misqoligacha terilmay qolib ketsa, qiyomat ko'payadi, davlatning beli sinadi, ummon ortidagi bizni ko'rolmaydigan yot unsurlar tish qayrab,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qo'shtig'iga pitra bosib payt poylab turibdi, deb ishonar, bizni ham ishonishga majburlashardi"<sup>3</sup>. Darhaqiqat, o'sha davrda shifokorlar, o'qituvchilar, talabalar va o'quvchilar paxta mavsumi boshlanishi bilan paxta terish uchun yo'l olishgan. Bu ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan.

I.Mirzoning nasrdagi ilk ijodi sifatida tahsinga loyiq. Bundan tashqari, lirik uslubga xos his-tuyg'ularga ko'p o'rin berilishi, so'zning eng munosibini - yorqinroq tasavvur uyg'otishga xizmat qiladigan darajasini izlab topib qo'llanilishi asarni jonli, hayotiy his qilishga imkon yaratadi. Bundan tashqari, har bir obraz, voqea joyini ko'rsatishda individuallik, yangi qirralarning obrazga "yopishtirilishi" yozuvchining badiiy mahorati yuqoriligini ko'rsata olgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonning insonligi, qalban go'zalligi, mohiyat-mazmuni nimada ekanligini Bonu obrazi orqali ko'ramiz. Bonu kabi taqdir sinovlari oldida dovdirab qolmasdan, Yaratganning har bir imtihonida sabr-matnat bilan tura bilish ham hammaning qo'lidan kelavermaydi. Zero, Alloh sabr qilguvchilarni suyadi. Romanda ayol va davr, muhit va ijtimoiy munosabatlar haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Yozuvchining ijtimoiy muhitga, zamonga, manaviy-ma'rifiy qarashlarga bo'lgan munosabatlari asarda singdirib yuborilganligi tasviri tahlil etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иқбол Мирзо. Бону. Учинчи жилд. Роман ва ҳикоялар. Тошкент. "Шарқ" НМАК. 2020. 98-бет.
2. Iqbol Mirzo. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/iqbol-mirzo/>.
3. Xaydaraliyeva A. Iqbol Mirzoning "Bonu" romanida o'zbek ayolining sabr-bardoshi va ichki kechinmalari tahlili . Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(10), October, 2023.

